

# **BO'LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH.**

Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi  
Qarshi xalqaro universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

## **DEVELOPING COMMUNICATIVE SKILLS IN THE PROCESS OF TRAINING FUTURE EDUCATORS.**

Sattorova Malikakhon Abdug'affor qizi  
Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences,  
Karshi International University

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish haqida so'z boradi. Muallif pedagogik ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarini o'rgangan.

**Kalit so'zlar:** tarbiyachi, kommunikatsiya, qobiliyat, rivojlantirish, maktabgacha ta'lif tashkiloti, kommunikativ qobiliyat

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие коммуникативных умений в процессе подготовки будущих педагогов. Опираясь на педагогические данные, автор проанализировал проблему на основе имеющейся научной литературы и изучил существующие особенности развития коммуникативных объектов в процессе подготовки будущих педагогов.

**Ключевые слова:** воспитатель, общение, социальное развитие, дошкольная организация, коммуникативная организация

**Annotation:** This article discusses the development of communication skills in the training of future educators. Based on pedagogical data, the author analyzes the problem on the basis of existing scientific literature and explores the specifics of developing communicative skills in the process of training future educators.

**Keywords:** educator, communication, ability, development, preschool organization, communicative ability

Maktabgacha ta'lif tizimi uzlaksiz ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini, poydevori hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lif tashkilotlari sonini ko'paytirish hamda moddiy texnik bazasini mustahkamlash,

maktabgacha ta’lim tashkilotlariga malakali pedagog kadrlarni etkazib berish, bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash uchun kerakli bo‘lgan barcha zamonaviy ta’lim dasturlari va tehnalogiyalarni ta’lim tarbiya jarayoniga joriy etish dolzARB masala bo‘lib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori, 2019-yil 8-may “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarorlarida yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar o‘z aksini topgan. Maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor, sohani takomillashtirish yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlardan ko‘zlangan asosiy maqsad Respublikamizda sifatli maktabgacha ta’lim tizimini yaratishdir. Shu munosabat bilan hozirgi kunga kelib, maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar ham sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachini har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishga maqsadli yo’naltirish, uning dunyoqarashini shakllantirish zarur. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi har tomonlama etuk, intellektual, o‘z sohasi yuzasidan kasbiy bilim, ko‘nikma malakaga va mahoratga ega bo‘lmog‘i lozim. Shular bilan bir qatorda davr talabiga mos tarbiyachilarni yetishtirish jarayonida ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak tarbiyachi shunday universal va o‘ta kuchli ommabop ta’sir vositalariga ega bo‘lishi kerakki, undan quvvat olgan tarbiyalanuvchi har qanday salbiy ta’sirga tushib qolganda ham uning ta’siridan chiqib keta olsin.

Kommunikatsiya bu - o‘zaro xamfikrlilikka boshlovchi ikki tomonlama axborot almashinuv jarayoni.

Tarbiyachining kommunikativlik qobiliyati – bu bolalar bilan muloqotda bo‘lishga, ular bilan yondashishda to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik takning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Tarbiyachilarining kommunikativ kompetensiyasi - bu murakkab muloqot qobiliyatlariga egalik qilishi, muloqotdagi madaniy me'yorlari va cheklovlarni bilishi, odob-ahloq qoidalarini bilishidir.

Rus psixologi M.M. Silakova ishonchli tarzda o'qituvchining kommunikativ vakolati maktabgacha ta'lif yoshi davrida bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning universal vositasi mazmunli muloyim muloqot ekanligini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi N.A. Moreva yuqori kommunikativ qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar uchun quyidagi mezonlarni tavsiflaydi:

- o'zaro va shaxslararo munosabatlarda tez, o'z vaqtida va to'g'ri qaror qabul qilish;
- muayyan vaziyatda boshqa shaxsni tushunish istagi;
  - shaxslar bilan aloqa o'rnatish; uning ahvoli va imkoniyatlarini hisobga olgan holda unga nisbatan hurmatli, xayrixoh munosabatda bo'lish;
- o'ziga ishonch, bo'shashmaslik, kirishimlilik;
- vaziyatni boshqarish, moslashuvchanlik, muloqotda moslashuvchanlikni ko'rsatish;
- muloqotdan qoniqish;
- zarur aloqalarni mustaqil ravishda o'rnatish va qo'llab-quvvatlash;
- muayyan jamoada yuqori maqom, mashhurlik;
- do'stona, hamkorlikdagi ishni tashkil etish, faollikning yuqori natijasiga erishish, shu jumladan guruh muammosini hal qilish;
- jamoada qulay muhit yaratish, barqarorlikka erishish qobiliyati.

Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Talabalar o'rtasida kommunikativlik ya'ni samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun bolalar, ularning ota-onalari, maktabgacha ta'lif

tashkiloti ma'muriyati bilan o'zaro suhbatlar, debatlar, munozaralar olib borish;

- Mahoratli, tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilarni bolalar, ota-onalar, tashkilot ma'muriyati, xamkasblar bilan kommunikativ xatti-harakatlarini kuzatish;
- Talabalar o'rtasida o'zaro kommunikativlikka oid muammoli vaziyatlar, keyslarni o'rtaga tashlash va ular asosida kommunikativ xarakterdagi vazifalarni tuzish va hal qilish,
- o'z kommunikativ qobiliyatlarini tahlil qilish.

Turli adabiy manbalarda kommunikativ kompetentsiya komponentlarini shakllantirish diagnostikasining quyidagi usullari taklif etiladi: "Muloqotda o'z-o'zini nazorat qilishni baholash" testi (M.Snayder), "O'qituvchining kommunikativ xususiyatlari darajasini baholash" testi (V.F.Ryaxovskiy), pedagogik uslubning kommunikativ komponentining xususiyatlarini aniqlash testi (A .A.Leontev), "Muloqotning tranzaksiyaviy tahlili" so'rovi, "Siz boshqalarga qanday ta'sir qilishni bilasizmi?" va boshq.

Shu bilan birga, talabalarning e'tiborini quyidagi masalalarga qaratish kerak:

- pedagogik jarayonda muloqot muammosining nazariy jihatlari (muloqotning strukturaviy modellari, aloqa to'siqlari, ichki o'zaro ta'sir qonuniyatları);
- o'zaro munosabatlarning qiyin vaziyatlarida nutq xatti-harakatining o'ziga xos usullari (nizoli vaziyatlar, tanqidni yengish, omma oldida nutq so'zlash, mакtabgacha ta'lим tashkilotlarida amalga oshiriladigan aloqalar va boshqalar);
- muloqot jarayonida shaxsning o'zini o'zi bilishi (boshqalar meni qanday qabul qiladi, muloqotda boshqalarga qanday ta'sir o'tkazaman, muloqotimdagи qiyinchiliklar qanday va hokazo).

Kommunikativlikni rivojlantirish amaliyotida turli xil treninglar ayniqsa mashhur bo'lib, unda talabalar o'rganilayotgan voqelik bilan bevosita aloqada

bo'ladilar, hayotiy tajribaga ega bo'ladilar. Zamonaviy kommunikativ treninglar quyidagi metodlar va ta'lif texnologiyalari: aqliy hujum, berilgan topshiriqlarni bajarish, rolga kirishish, simulyatsiya o'yinlari, video namoyishlar va boshqalar kabi faol o'rganish usullarining standart to'plamini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, bo'lajak maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarini pedagogik malakasini oshirish bo'yicha ishlar fan va amaliyot yutuqlariga asoslangan, talabalarning kasbiy mahorat darajasini oshirishga qaratilgan va yuqori sifatga erishishga qaratilgan uzlusiz ta'lif tizimining bir qismidir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida" Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan.
2. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lif muassasasining Davlat o'quv dasturi. T.:
3. Буре.Р.С. Воспитатель и дети [Текст] / Р.С. Буре, Л.Ф. Островская. -М.: Просвещение, 1985. - 143 с.
4. To'xtaxodjayeva M.X va boshqalar „Pedagogika“ T. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2010 y., 356b.
5. Ziyodova T. Ta'linda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi hamkorligi omili. "Xalq ta'limi" jurnali, T.: 2012. 4- son, 9-12 b.

